



XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI

2021 - yil 11 - avgust

VI-38-22-7-93-K/21

Bulung'ur tuman hokimligi

2021-yil iyul oyi davomida Bulung'ur tumanida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va asosiy ko'rsatgichlarni 30 foizga oshirish yuzasidan amaliy chora-tadbirlar dasturining ijrosi to'g'risida

Joriy yilning iyul oyida quyidagilarga erishildi:

KBS soni

Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi asosiy raqamlar, Bulung'ur tumanida 2021-yilning iyul oyida 45 ta kichik biznes subyektlari ochilishi rejalashtirilgan bo'lib, amalda 45 ta kichik biznes subyektlari ochilib reja 100% bajarildi.

111 ta Yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlari ochilishi rejalashtirilgan bo'lib, amalda 121 ta YaTTlar ochilib, reja 109 % yoki 10 taga ortig'i bilan bajarildi.

PQ-4742-sonli qarori bo'yicha

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi PQ-4742-sonli "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori ijrosini ta'minlash maqsadida

2021-yil iyul oyida 100 nafar ishsiz fuqaroni o'zini-o'zi band qilish rejasi belgilangan bo'lib, amalda 176 nafar fuqaro o'zini o'zi band qilib, reja 176 % bajarildi.

Budjet

2021-yil iyul oyi yakuniga ko'ra, budjetga jami tushumlar o'rnatilgan 7,0

mlrd 428,0 mln.soʻmlik reja amalda 6,0 mlrd 555 mln. soʻmga yoki 88% yoki 870 mln. soʻmga kam bajarildi;

Mahalliy budjetga oʻrnatilgan 4 mlrd 297 mln. soʻm reja belgilangan boʻlib, haqiqatda 3 mlrd 627 mln.soʻmga yoki 84% yoki 669 mln. soʻmga kam bajarildi.

Yuqoridan kelib chiqib budjetni bajarilmagan qismini tuman Davlat soliq inspeksiyasi, Moliya boʻlimi va mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda tuman hududidagi yashirin iqtisodiyot bilan shugʻullanib kelayotgan tadbirkorlik subyektlarini aniqlash va qoʻshimcha manbalarni yaratish orqali avgust oyida iyul oyida budjetning bajarilmay qolgan qismini ortigʻi bilan bajarish choralari koʻramiz.

Legalizasiya

2021-yil iyul oyi yakuni bilan xoʻjalik yurituvchi subyektlarda norasmiy ishlab kelayotganlarning rasmiylashtirish rejasi 437 nafar etib belgilangan boʻlsa, amalda 438 nafar xodimlar legallashtirilib, rejaga nisbatan 100,2% bajarildi.

“YER-ELEKTRON” dasturi

"YER-ELEKTRON" avtomatlashgan axborot tizimiga kiritish uchun boʻsh yer uchastkalari maydoni 7,81 gektar, 277 ta yer uchastkalari aniqlangan. Shundan, Auksionga chiqarilgan jami yer uchastkasi soni 243 ta, auksionda sotilgan yer uchastkasi soni 42 tani tashkil etadi.

Bandlik

Tumanda aholining ishsiz qatlamini ish bilan taʼminlash maqsadida 2021-yil iyul oyida 171 nafar ishsiz fuqarolarni ishga joylashtirish belgilangan boʻlib, amalda 177 nafar ishsiz fuqarolar bandligi taʼminlandi (rejaga nisbatan 103,5%).

Tumanda 2021- iyul oyida 37 nafar fuqarolar kasb-hunarga oʻqitish belgilangan boʻlib, amalda 37 nafar (rejaga nisbatan 100%) fuqarolar mavjud kasb-hunar maktablarida oʻqitildi.

2021-yilning avgust oyida ham sanoat ishlab chiqarish hajmini, qishloq xoʻjaligida, qurilish-pudrat ishlari, jami xizmatlar hajmi, chakana savdo-aylanmasi va yuqorida koʻrsatib oʻtilgan barcha koʻrsatkichlar 30 % ga oʻsishi taʼminlanadi.

“Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi

Qonunining 24-moddasiga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashining XXXVIII-sessiyasi

QAROR QILADI:

1.2021-yil iyul oyi davomida Bulung‘ur tumanida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va asosiy ko‘rsatgichlarni 30 foizga oshirish yuzasidan amaliy chora-tadbirlar dasturini ijrosi to‘g‘risida tuman hokimining moliya-iqtisod va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari D.Xabibullayevning hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2.Tumanni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish, har bir yo‘nalishdagi ishlarni jadallashtirish maqsadida tuman hokimining moliya-iqtisod va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (D.Xabibullayev), tuman iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi boshlig‘i birinchi o‘rinbosari (J.Razzoqov), tuman investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi boshlig‘i birinchi o‘rinbosari (I.O‘sarov), tumandagi sektorlar rahbarlari (B.Bahramov, S.Saidov, B.Jo‘raqulov, Sh.Eshmuratov) tuman hokimligi moliya bo‘limi (J.Narziyev) bilan birgalikda:

- budjetni bajarilmagan qismini tuman hududidagi yashirin iqtisodiyot bilan shug‘ullanib kelayotgan tadbirkorlik subyektlarini aniqlash va qo‘shimcha manbalarni yaratish orqali avgust oyida iyul oyida budjetning bajarilmay qolgan qismini ortig‘i bilan bajarish choralarini ko‘rish;

- yangi ish o‘rinlari yaratish, ishsizlikni kamaytirish va mehnat bozori samaradorligini ta‘minlash, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish va aholi turmush sifatini yaxshilash;

- barqaror iqtisodiy o‘rni ta‘minlash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, sanoat salohiyatini mustahkamlash va hududlarni kompleks rivojlantirish maqsadida investitsiyalarni jalb qilish sohalari va tarmoqlarini aniqlash orqali faol investitsiya siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;

3.Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Nomazov) zimmasiga yuklatilsin.

Кенгаш раиси



В.Бахрамов